

EKOLOGIYA VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH BORASIDA
PROFILAKTIKA INSPEKTORINING VAKOLATLARI

Gadoymirodov Bekzod Obidjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Ibroximov Ilxomjon Raimberdi o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

3-o'quv kursi kursanti

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasida ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonun hamda Prezident farmonlari asosida Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, ichki ishlar organlari va jamoatchilik inspektorlari o'rtasida samarali hamkorlik tizimi yo'lga qo'yildi. Bu chora-tadbirlar tabiatni muhofaza qilish, brakonerlik va chiqindilar bilan bog'liq huquqbuzarliklarni kamaytirishga qaratilgan.

Kalit so'zlari: Ekologiya, huquqbuzarliklar profilaktikasi, jamoatchilik nazorati, ekologik patrul, brakonerlik.

Abstract: Systematic work is being carried out in the Republic of Uzbekistan to prevent, identify, and eliminate offenses in the field of ecology. Based on the Law "On Crime Prevention" and Presidential decrees, an effective system of interaction has been established between the State Committee for Ecology and Environmental Protection, internal affairs bodies, and public inspectors. These measures are aimed at reducing violations related to environmental protection, poaching, and waste management.

Keywords: Ecology, crime prevention, public control, environmental patrol, poaching.

O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-may kuni qabul qilingan "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ 371-son Qonuni qabul qilingan bo'lib, unda huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar keltirib o'tilgan.

Qonunning 19-moddasida ekologiya sohasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi asosiy vakolatlar berilgan. Jumladan:

- huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;
- tabiatni muhofaza qilish sohasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir dasturlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi;
- tabiatni muhofaza qilish sohasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiradi, mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlaydi, bartaraf etadi;

- tabiatni muhofaza qilish sohasida huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning hisobini yuritadi, mazkur ma'lumotlarning tahlilini amalga oshiradi;

- huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda muassasalar bilan o'zaro hamkorlik qiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-yanvar kuni qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 29-son qarorida ham qo'mitaning ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklarni oldini olish bo'yicha bir qator vazifalar belgilab berilgan.

Profilaktika inspektorlariga ekologik huquqbuzarlarni javobgarlikka tortish vakolati berildi

Endilikda profilaktika inspektorlari ekologik huquqbuzarliklar va brakonerlik holatlari bo'yicha bevosita o'zlari ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirishlari mumkin. Profilaktika inspektorlari, PPX va Milliy gvardiya xodimlari yozgan ekologik huquqbuzarliklar bo'yicha jarimalarning 30 foizi ularning o'zlariga pul mukofoti qilib beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 avgust kunda qabul qilingan "Chiqindilar bilan bog'liq ishlarni tashkil etish tizimini isloh qilish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-189-son farmoni qabul qilindi.

Unga ko'ra:

- a) ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish borasida jamoatchilik nazoratini rag'batlantirish va qo'shimcha imkoniyatlar yaratish maqsadida ekologik nazoratning jamoatchi inspektorlari faoliyatini quyidagicha isloh qilish:

ekologik nazoratning jamoatchi inspektorlariga Davlat ekologiya qo'mitasi tomonidan yuritiladigan «Yashil makon» va boshqa platformalardan foydalanish imkoniyatini yaratish hamda ularni sohada amalga oshirilayotgan ishlar ko'lamini va natijalari to'g'risida muntazam xabardor qilib borish;

ekologik nazoratning jamoatchi inspektorlariga tegishli hududda atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning I — IV toifalariga mansub faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi ob'ektlarda belgilangan tartibda olib boriladigan ekologik nazorat tadbirlarida ishtirok etish huquqini berish;

ekologik nazoratning jamoatchi inspektorlariga Davlat ekologiya qo'mitasi raisi yoki u vakolat bergan boshqa mas'ul shaxslar tomonidan guvohnomalar berish;

ekologik nazoratning jamoatchi inspektorlarini ularning faoliyati natijalariga ko'ra «Tabiat himoyachisi» ko'krak nishoni bilan taqdirlash;

- b) ichki ishlar organlari tayanch punkti profilaktika (katta) inspektorlariga mahallalarda ekologik nazoratni amalga oshirish bo'yicha quyidagi vazifa va vakolatlarni berish orqali «Ekologik patrul» ishlash tizimini kengaytirish:

mahallalarda ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanishga doir huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, shuningdek, brakonerlikka qarshi kurashish;

ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanishga doir huquqbuzarliklar hamda brakonerlikka qarshi kurashish bo'yicha bevosita ma'muriy javobgarlikka tortish va tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish.

Shuningdek, ichki ishlar organlari tayanch punkti profilaktika (katta) inspektorlari, Patrul-post xizmati xodimlari va Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari (xodimlari) ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi huquqbuzarliklar bo'yicha ma'muriy javobgarlikka tortish choralari ko'rilishi natijasida jarima sifatida undirilgan mablag'larning 10 foizi miqdordagi pul mukofoti bilan rag'batlantiriladi;

Milliy gvardiya va Ichki ishlar vazirligi rahbarlarining bir nafardan o'rinbosarlari ekologik huquqbuzarlikka qarshi kurashishga mas'ul bo'ladi;

Bosh prokuratura, Milliy gvardiya va Ichki ishlar vazirligi ekologik huquqbuzarlikka qarshi kurashish chora-tadbirlarini Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi bilan yaqindan hamkorlikda va o'zaro muvofiqlashtirgan holda amalga oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-may kuni qabul qilingan "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ 371-son Qonuni;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 avgust kunida qabul qilingan "Chiqindilar bilan bog'liq ishlarni tashkil etish tizimini isloh qilish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-189-son farmoni;
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-yanvar kuni qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 29-son qarori;
4. Kurbanov M. N. Muqaddam sudlangan shaxslar o'rtasida amalga oshiriladigan maxsus profilaktikasini takomillashtirish masalalariga oid fikr mulohazalar //Central Asian Journal of Academic Research. – 2024. – T. 2. – №. 12. – S. 68-72.;
5. Gadoymirodov B. Administrative responsibility for minors: historical development and international legal documents //Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations. – 2025. – T. 1. – №. 3. – S. 210-212.